

**"Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi"ga kiritilayotgan o'zgartirish va
qo'shimchalar**

AT "Aloqabank" Boshqaruvi yig'ilishining 2024-yil 1-iyuldagi 426-sonli bayoni bilan tasdiqlangan va 906-son bilan ro'yxatga olingan "Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi" (bundan buyon matnda "Tartib" deb yuritiladi)ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

I. Tartibning "II. Kredit ajratish shartlari hamda qarz oluvchi, birgalikda qarz oluvchi va kafilga nisbatan qo'yiladigan talablar" bo'limidagi 2.20.1-bandining c-kichik bandi, 2.20.5, 2.20.6, 2.20.8-bandlari, 2.20.9-bandning c-kichik bandi va 2.20.16-bandni quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin:

"2.20.1. ... :

...

c) qarz oluvchining mulki bo'lgan yakka tartibdagi uy-joyi yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani ta'mirlash va rekonstruksiya qilish.

...

2.20.5. Ajratiladigan ipoteka krediti miqdori sotib olinayotgan uy-joyning sotib olish qiymatining, ulushdor jismoniy shaxslarga ulush kiritish asosida qurilayotgan kvartira bo'yicha to'lovlarni to'lash uchun ajratilayotgan hollarda esa, Ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to'g'risidagi shartnoma qiymatining **80 (sakson) foizidan** oshishi mumkin emas.

2.20.6. Uy-joy sotib olish uchun ajratiladigan ipoteka krediti bo'yicha **boshlang'ich badal miqdori kamida 20 (yigirma) foiz** bo'lishi lozim.

...

2.20.8. Uy-joyi qurish, rekonstruksiya qilish yoki ta'mirlash uchun beriladigan ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badal talab qilinmaydi.

2.20.9. ... :

...

c) qarz oluvchining mulki bo'lgan va ipoteka krediti hisobiga rekonstruksiya qilinayotgan yoki ta'mirlanayotgan yakka tartibdagi uy-joy, ko'p kvartirali uydagi kvartira."

...

2.20.16. Ipoteka krediti uy-joyi qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish maqsadida ajratilgan hollarda kredit mablag'i qurilish materiallarini sotib olish va ishlarni amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni qoplash uchun tegishli oldi-sotdi, ishlarni bajarish yoki pudrat shartnomasiga asosan naqd pulsiz pul o'tkazish yo'li bilan, shuningdek qarz oluvchining nomiga Bankda emissiya qilingan bank kartasiga o'tkazish yo'li bilan ajratiladi.

II. Tartibning "III. Kredit olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar" bo'limidagi 3.1.7-bandni quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin:

"3.1.7. Uy-joyi qurish, rekonstruksiya qilish ishlari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilgan va qarz oluvchi tomonidan tasdiqlangan loyiha-smeta

hujjatlari va smeta bo'yicha ekspertiza xulosasi (*Uy-joyni qurish yoki rekonstruksiya qilish uchun ipoteka krediti ajratilishida*). Uy-joyni ta'mirlash uchun kredit ajratilishida loyiha-smeta hujjati talab qilinmaydi."

III. Tartibning "IV. Kredit hujjatlarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish" bo'limi quyidagi yangi 4.16-band bilan to'ldirilsin:

"4.16. Qarz oluvchining ishtirokisiz yoki xabarisiz kredit bitimi rasmiylashtirilishining oldini olish maqsadida kredit byurosi tomonidan yuritiladigan Kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reyestridan kredit bitimi tuzish taqiqi mavjudligi yoki bunday taqiq olib tashlanganligi to'g'risidagi axborot onlayn tarzda o'rganiladi. Kredit bitimi tuzishi taqiqlangan shaxslar reyestrda Qarz oluvchining kredit bitimi tuzishiga taqiq mavjudligi aniqlansa, kredit arizasi bekor qilinadi va bitim tuzish rad etiladi."

IV. Tartibga kiritilayotgan ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar o'rnatilgan tartibda Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan hamda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.